

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
statistika agentligi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI

2023- yil fevral




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA YIG'MA ISTE'MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da

Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'lchovi makroko'rsatkichlarning bazaviy to'plami asosida amalga oshirilib, ularning orasida **iste'mol narxlari indeksi (INI)** iste'mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o'rin egallaydi.

Inflyatsiyaning oqibatlari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodchilar yuqori, nazoratsiz inflyatsiya ham, doimiy deflyatsiya ham o'zining salbiy oqibatlariga egaligi va inflyatsiya ko'rsatkichini ma'lum bir target (maqsadli ko'rsatkich)dan oshib ketmasligini ta'minlash hamda aholi va biznesning inflyatsion kutilmalarini pasaytirish inflyatsiyaga qarshi siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'lishi zarurligi to'g'risidagi fikrga qo'shiladilar.

fevral oyidagi yig'ma INI, % da



Mamlakat iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bu – **iste'mol narxlari indeksi** bo'lib, u o'zgarmas iste'mol tuzilmasiga ega bo'lgan holda tovarlar va xizmatlarning belgilangan to'plami qiymatining o'zgarishlarini ifodalaydi.

2023- yilning fevralida o'tgan oyga nisbatan INI **100,5 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **101,4 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (o'tgan yilning fevraliga nisbatan) ushbu ko'rsatkich **112,2 %** ga yetdi.


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI, % da

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Respublikada INIni hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan.

INIni shakllantirishga “Iste‘mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>.

2023- yilning yanvar oyida ayrim davlatlardagi* yig‘ma INI, % da



* milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma‘lumotlar asosida

FEVRAL OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIn hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi. Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.

2023- yilning fevralida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **100,6 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa – **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **101,4 %** va **101,2 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **113,4 % va 108,5 %** ni tashkil etdi.



TOVARLAR

XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan




TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan:




fevral oyida o'tgan oyga nisbatan



fevral oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan



fevral oyida o'tgan yilning fevraliga nisbatan






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ FEVRAL OYIDAGI INI, % da

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning fevraliga nisbatan




YIG'MA INI



TOVARLAR




OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o'zgarishlarini hisobga olmaganda 2023- yilning fevralidagi qisqa muddatli INI **100,3 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko'rsatkich **100,8 %** darajasida, 2022- yilning fevraliga nisbatan esa – **112,9 %** darajasida qayd etildi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

fevral o'tgan oyga nisbatan



2023- yilning fevralida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,31 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining **57,4 %** i to'g'ri keldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'siri ulushi umumiy ta'sir darjasida **20,4 %** ni (ta'sir **0,11 f.d.**) va xizmatlar ta'siri ulushi esa **22,2 %** ni (ta'siri **0,12 f.d.**) tashkil etdi.

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.


Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI


Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da

fevral o'tgan yilning dekabriga nisbatan



fevral o'tgan yilning fevraliga nisbatan



■ Oziq-ovqat mahsulotlari ■ Nooziq-ovqat mahsulotlar ■ Xizmatlar


2023- yilning yanvar-fevralida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,75 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sir darajasining **55,1 %** i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiy ta'sir darajasidagi ulushi **24,3 %** ni (ta'siri **+0,33 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past darajada bo'lib, **0,28 f.d. (20,6 %)** ga yetdi.

MAQSADLAR BO'YICHA INDIVIDUAL ISTE'MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O'zR MIIT – 2018) BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-sonli qarori** bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "YO'L XARITASI"ning 36-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan, 2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo'mitasi MDHga a'zo davlatlar orasida birinchilardan bo'lib iste'mol narxlari indeksini (INI) to'liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi.

fevral oyida o'tgan oyga nisbatan*


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari



V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




VI. Sog'liqni saqlash




* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O'zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

fevral oyida o‘tgan oyga nisbatan


VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa



IX. Dam olish, sport va madaniyat



X. Ta’lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar




2023- yilning fevralida “Transport” (VII) bo‘limi bo‘yicha oylik qisqa muddatli INI **102,0 %** ni tashkil etdi. “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi bo‘yicha INI **100,8 %**, “Dam olish, sport va madaniyat” (IX) va “Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar” (XIII) bo‘limlarida **100,6 %** qayd etildi. Boshqa bo‘limlarda INI kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (**100,5 %**) past bo‘ldi.


O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

fevral oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari




V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko'rsatish




VI. Sog'liqni saqlash



VII. Transport



VIII. Axborot va aloqa




O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da


fevral oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Davomi


IX. Dam olish, sport va madaniyat




X. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



IZOH: O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INI hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.

2023- yilning yanvar-fevrali uchun INI “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) (2022- yilning mos davri bilan barobar 101,9 %), “Transport” (VII) (102,7 % ga 99,6 %) va “Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar” (XII) bo‘limlaridan (100,1 % ga 100,0 %) boshqa barcha bo‘limlar bo‘yicha o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichlardan past bo‘ldi.

O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

fevral oyida o'tgan yilning fevraliga nisbatan

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR		SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI		KIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	114,7	2021- yil	111,0	2021- yil	107,8
2022- yil	113,1	2022- yil	109,4	2022- yil	106,4
2023- yil	115,4	2023- yil	109,9	2023- yil	108,5

TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI		UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH		SOG'LIQNI SAQLASH	
2021- yil	108,0	2021- yil	108,9	2021- yil	114,1
2022- yil	102,6	2022- yil	108,0	2022- yil	108,5
2023- yil	104,8	2023- yil	112,1	2023- yil	116,3

TRANSPORT		AXBOROT VA ALOQA		DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	110,9	2021- yil	103,4	2021- yil	107,5
2022- yil	111,2	2022- yil	102,7	2022- yil	109,7
2023- yil	113,2	2023- yil	101,6	2023- yil	113,7

TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		SUG'URTALASH VA MOLIYAVIIY XIZMATLAR	
2021- yil	106,1	2021- yil	117,2	2021- yil	104,7
2022- yil	111,3	2022- yil	114,7	2022- yil	99,7
2023- yil	103,4	2023- yil	121,7	2023- yil	104,4

MAISHIIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	111,0
2022- yil	110,1
2023- yil	113,8

IZOH: O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INInI hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistika maqsadlarida 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan.


“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

fevral oyida o‘tgan oyga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Go‘sh va go‘sh mahsulotlari



2023- yilning fevralida “Go‘sh mahsulotlari” (**99,5 %**) va “Yog‘lar va moylar” (**99,2 %**) guruhlarida 100 % lik darajadan past bo‘lgan INI kuzatildi.


Mavsumiylik “Mevalar va yong‘oqlar” (**101,7 %**) va “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” (**105,1 %**) guruhlarida shakllangan qisqa muddatli INIga ta‘sir qildi.

Narx indeksi **101,0 %** ni tashkil etgan meva-sabzavot va “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari” guruhlaridan boshqa barcha guruhlarda oylik INI oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo‘limi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.


Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar



Mevalar va yong‘oqlar



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari




Spirtsiz ichimliklar



“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

fevral oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Go‘sh t mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Yog‘lar va moylar




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Mevalar va yong‘oqlar




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Spirtsiz ichimliklar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Mavsumiylik omili “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi bo‘yicha 2023- yilning yanvar-fevralidagi INIga ta‘sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, mevalar va yong‘oqlar (**102,6 %**) hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilarda (**113,2 %**) bo‘lim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori INI kuzatildi.

Go‘sh t, sut mahsulotlari va tuxum hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilardan boshqa barcha guruhlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-fevralidagi INI o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA


fevral oyida o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil


Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil


Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- yil 2022- yil 2023- yil




Yog‘lar va moylar




2021- yil 2022- yil 2023- yil

Mevalar va yong‘oqlar




2021- yil 2022- yil 2023- yil

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




2021- yil 2022- yil 2023- yil

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




2021- yil 2022- yil 2023- yil

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- yil 2022- yil 2023- yil

Spirtsiz ichimliklar




2021- yil 2022- yil 2023- yil


Mevalar va yong‘oqlar narxlarining o‘rtacha darajasi joriy yilning fevral oyida o‘tgan yilning mos oyidagiga nisbatan pastligicha qoldi. “Yog‘lar va moylar”, “Mevalar va yong‘oqlar”, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhlarida 2023- yilning fevral oyida yillik nisbatdagi INI 2022- yil fevralidagi mos ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da


Guruch va guruch oqshog'i




Bug'doy uni




Suyakli mol go'shti




Qo'y go'shti




Sut




Tuxum



Kungaboqar yog'i




Shakar




■ o'tgan oyga nisbatan
 —●— o'tgan yilning dekabriga nisbatan
 —●— o'tgan yilning fevraliga nisbatan

2023- YILNING FEVRALIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan





o'tgan yilning fevraliga nisbatan



Qish oylariga xos bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining oshishi asosan mavsumiylik omili bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, 2023- yilning fevralida piyoz narxining oshishi yil boshiga nisbatan pastroq darajada bo'ldi (**109,8 %** ga **144,7 %**). Banan narxlari joriy iylining fevralida o'tgan oyga nisbatan arzonlashib INI 100 % lik darajadan past (**98,4 %**) bo'ldi.

2023- yilning yanvar-fevralida piyoz bo'yicha INI **159,0 %** ni tashkil etib, shu bilan birga, ushbu mahsulot narxlarining o'sishi 3 ming so'mdan oshmadi.


Karam, olma, limon, sarimsoq, anor, ko'katlar, baqlajon, kartoshka, qovoq 2023- yilning fevralida yillik nisbatda narxlari pasaygan mahsulotlar qatoridan joy oldi. 2022- yilning fevraliga nisbatan ularning INI **68,8-95,7%** atrofida shakllandi.

 narxlari oshgan mahsulotlar
 narxlari tushgan mahsulotlar

2023- YIL FEVRAL OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da

o'tgan oyga nisbatan

Jami ta'siri **+0,30** f.d.



o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Jami ta'siri **+0,75** f.d.



o'tgan yilning fevraliga nisbatan

Jami ta'siri **+6,2** f.d.



Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Go'sht mahsulotlari



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



Yog'lar va moylar



Mevalar va yong'oqlar



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar



Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari




Spirtsiz ichimliklar

“SPIRTL ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II) BO‘YICHA INI, % DA


SPIRTLI ICHIMLIKLAR

fevral	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning fevraliga nisbatan
2020- yil	100,8	100,8	
2021- yil	100,9	101,7	108,9
2022- yil	100,5	101,4	110,1
2023- yil	100,1	100,2	109,7


Aroq




Vino



Konyak




Pivo




TAMAKI MAHSULOTLARI

fevral	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning fevraliga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	104,9	105,1	117,2
2022- yil	100,5	101,0	107,8
2023- yil	100,7	101,3	110,2

Sigaret



Boshqa tamaki mahsulotlari



o‘tgan oyga nisbatan o‘tgan yilning dekabriga nisbatan o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

“KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III) BO‘YICHA INI, % DA


fevral





KIYIM




POYABZAL



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil



2020- yil 2021- yil 2022- yil 2023- yil



○ o'tgan oyga nisbatan ○ o'tgan yilning dekabriga nisbatan □ o'tgan yilning fevraliga nisbatan

o'tgan oyga nisbatan				o'tgan yilning dekabriga nisbatan				o'tgan yilning fevraliga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR										
100,9	100,2	100,6	100,2	101,2	100,5	101,7	100,7	108,3	105,9	108,9
USTKI KIYIM										
100,9	100,3	100,8	99,9	101,1	100,7	101,6	100,8	108,3	106,6	108,4
BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA										
100,4	100,2	100,5	100,0	101,4	100,7	101,2	100,8	106,3	105,9	107,7
KIYIMLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH										
101,5	101,1	100,6	100,7	102,1	101,5	102,1	101,5	111,1	112,3	113,0
BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR										
100,8	100,2	100,9	99,9	101,0	100,6	101,8	100,7	106,1	105,7	108,4
POYABZALLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH VA IJARAGA BERISH										
101,6	101,0	100,7	101,1	104,2	102,2	102,4	102,8	118,3	113,1	115,6


Qishqi kiyimlar va poyabzallarga mavsumiy chegirmalarning berilayotganligi “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limidagi narxlarga ta’sir o‘tkazdi.

**“TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV)
BO‘YICHA INI, % DA**

**TURAR JOY UCHUN AMALDAGI
IJARA HAQI***





**TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH,
TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH**





*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

**SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH
BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR**



**ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA
TURLARI**



fevral

- o‘tgan oyga nisbatan
- o‘tgan yilning dekabriga nisbatan
- o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida joriy yilning fevral oyida o‘zgarishlar deyarli kuzatilmadi.


Narxlar indeksi tebranishlari faqat “Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash” guruhida qayd etilib, turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar bo‘yicha qisqa muddatli INI **99,7 %** ni, turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash xizmatlari bo‘yicha – **101,0 %** ni tashkil etdi.

Oy davomida asosiy turdagi kommunal xizmatlar turlari narxlar barqaror bo‘ldi.


“UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V) BO‘YICHA INI, % DA

fevral


MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




MAISHIY PRIBORLAR




KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR




UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

Joriy yilning fevralida maishiy mebel bo‘yicha INI tebranishlarining uqori chegarasi **100,3 %** ni tashkil etdi.

Asosiy turdagi maishiy texnika bo‘yicha INI o‘zgarishlari diapazoni **99,7 %** dan (isitgich va sovutgichlar) **100,8 %** gacha (maishiy priborlarni o‘rnatish va ta‘mirlash) oraliqda joylashdi. Oshxona predmetlari va uy-ro‘zg‘or predmetlari bo‘yicha INI oy davomida **100,4 %** ni tashkil etdi.

Kundalik turmushda va bog‘dorchilikda ishlatiladigan asboblari va moslamalar bo‘yicha INI diapazoni joriy yilning fevralida **98,6-100,1 %** ni tashkil etdi.




“SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI) BO‘YICHA INI, % DA

fevral
o‘tgan oyga nisbatan




fevral o‘tgan yilning
dekabriga nisbatan

fevral o‘tgan yilning
fevraliga nisbatan




DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI






AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




2023- yilning fevralida stomatologik-profilaktik xizmatlar bo‘yicha oylik INI **101,0 %** ni, diagnostika vizualizatsiyasi va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari bo‘yicha **100,6 %** ni, dori vositalari – **100,2 %** ni, statsionar va ambulatoriyada davolash xizmatlari bo‘yicha mos ravishda **100,8 %** va **100,4 %** ni tashkil etdi.

“TRANSPORT” BO‘LIMI (VII) BO‘YICHA INI, % DA


fevral

o‘tgan oyga nisbatan o‘tgan yilning dekabriga nisbatan o‘tgan yilning fevraliga nisbatan


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning fevralida benzinning qisqa muddatli INI **101,1 %** ni, avtomobillar uchun boshqa yonilg‘ilar bo‘yi-cha **105,3 %** ni tashkil etdi.


Havo transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari INI oy davomida **103,1 %**, ga, avtomobil transportida **101,7 %** ga, temir yo‘l transportida **100,6 %** ga yetdi.

Joriy yilning fevralida yangi yengil avtomobillar narxlarida o‘shish kuzatildi. Ularning INI oy davomida **101,3 %** ni tashkil etdi.



“AXBOROT VA ALOQA” BO‘LIMI (VIII) BO‘YICHA INI, % DA

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



Joriy iylning fevralida axborot va kommunikatsiya uskunalarning INI **100,3 %** ni tashkil etib, 2020-2021- yillarning mos oyidagi ko‘rsatkichdan past va 2022- yil fevralidagi ko‘rsatkich bilan barobar bo‘ldi.

Ushbu guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,7 %** dan (noutbuklar) **100,5 %** gacha (mobil telefon uskunasi va ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozish va aks ettirish uchun uskunalar) oraliqda joylashdi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR




Axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar orasida joriy yilning fevralida narxlarning tebranishlari faqat kompleks telekommunikatsiya xizmatlari va axborot-kommunikatsiya uskunalarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarda kuzatilib, ularning INI mos ravishda **100,7 %** va **100,2 %** ni tashkil etdi. Ushbu xizmatlarning salmoq vaznlari va ushbu sohada kuzatiladigan boshqa xizmatlar narxlarining barqarorligi hisobiga mazkur sohada oylik INI **100,0 %** darajasida qayd etildi.

“DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX) BO‘YICHA INI, % DA




DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR

fevral




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR

fevral




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH

fevral




BOG'DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI

fevral




GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI

fevral



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR

fevral



o'tgan oyga nisbatan o'tgan yilning dekabriga nisbatan o'tgan yilning fevraliga nisbatan

“Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida 2023- yilning fevralida INI o'tgan oyga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning fevralida hayvonot bog'larining chipta narxlari respublika bo'yicha o'rtacha 13,1 % ga, jumladan Farg'ona viloyatida 1,7 barobarga oshdi. Shu bilan birga, ushbu viloyatda narxlarning o'sishi 5200 so'mdan oshmadi.

“TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO'LIMI (X) BO'YICHA INI, % DA

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH

fevral	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
o'tgan oyga nisbatan	100,0	100,1	100,0	97,9
o'tgan yilning dekabriga nisbatan	100,0	100,1	100,2	97,9
o'tgan yilning fevraliga nisbatan	-	115,3	113,5	98,7



Ta'lim xizmatlari bozorida narxlarning o'rtacha darajalari pasayganligi kuzatilib, bu holat davlat maktabgacha tashkilotlar xizmatlari uchun to'lovlarning yangi miqdorlari joriy etilganligi bilan bog'liqdir.

Ma'lumot uchun:

Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida narxlarning oshishi kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarda kuzatiladigan xizmat turlari orasida narxlarning pasayishi qayd etildi. Toshkent shahrida esa to'lov miqdori o'tgan oyga nisbatan o'zgarmadi.

OLIY TA'LIM

fevral	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
o'tgan oyga nisbatan	100,0	100,0	100,0	100,0
o'tgan yilning dekabriga nisbatan	100,0	100,0	100,0	100,0
o'tgan yilning fevraliga nisbatan	-	100,8	109,8	102,2


BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM

fevral	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
o'tgan oyga nisbatan	100,3	101,7	100,7	100,6
o'tgan yilning dekabriga nisbatan	100,5	102,1	101,2	101,2
o'tgan yilning fevraliga nisbatan	-	107,9	111,5	109,8


“RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI) BO‘YICHA INI, % DA

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR


fevral oyida o‘tgan oyga nisbatan






fevral oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




fevral oyida o‘tgan yilning fevraliga nisbatan



MEHMONXONALAR XIZMATLARI



Joriy yilning fevral oyida umumiy ovqtalanish sohasida narxlarning o‘rtacha darajalarida o‘zgarishlar kuzatilmadi.



2023- yilning fevralida dam olish markazlari xizmatlari INI oy davomida **102,2 %** ni tashkil etib, bu holat Andijon viloyatida ushbu xizmat narxlarining oshishi bilan bog‘liqdir.

Buxoro va Samarqand viloyatlarida mehmonxonalar xizmatlari narxlarida o‘shish qayd etilib, buning natijasida ushbu xizmat bo‘yicha INI respublikada **100,6 %** darajasida shakllandi.

“SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII) BO‘YICHA INI, % DA

SUG‘URTA



fevral	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning fevraliga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	100,0	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0	100,0

MOLIYAVIY XIZMATLAR



fevral	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning fevraliga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	101,4	101,4	108,3
2022- yil	100,0	100,0	99,5
2023- yil	100,1	100,2	109,1

Joriy yilning fevralida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.


Moliyaviy xizmatlar orasida narxlarning sezilarsiz tebranishlari bank orqali pul mablag‘larini o‘tkazish xizmatlarida qayd etildi. Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI oy davomida **100,5 %** ni tashkil etdi.

Bu holat milly valyutaning AQSH dollariga nisbatan kursi tebranishlari va buning natijasida xorijiy valyutada pul mablag‘larini o‘tkazish uchun komission yig‘imlarning o‘zgarishlari bilan bog‘liq.

**“MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA
VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII)
BO‘YICHA INI, % DA**


fevral

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




Shaxsiy foydalanish uchun elektr priborlari bo'yicha INI oy davomida **100,4 %** ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich sarta roshxonalar va shaxsiy xizmat ko'rsatish muassalari xizmatlari bo'yicha **101,4 %** darajasida shakllandi.

**SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN
BOSHQA PREDMETLAR**



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo'yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning fevralida **100,1-100,8 %** oralig'ida joylashdi.

BOSHQA XIZMATLAR



2023- yilning fevralida boshqa xizmatlar guruhida narxlarning sezilarsiz o'sishi diniy xizmatlarda kuzatildi. Ularning qisqa muddatli INI butun respublika bo'yicha **100,2 %** ni tashkil etdi.

o'tgan yilning fevraliga nisbatan o'tgan yilning dekabriga nisbatan o'tgan oyga nisbatan


Yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta'sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o'zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog'i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o'lcham bo'lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig'indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o'zaro solishtirib bo'lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo'llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo'yicha o'zaro solishtirilishi mumkin bo'lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o'rganilayotgan hodisa bo'yicha narx o'zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

o'tgan oyga nisbatan


YIG'MA INI O'SISH
SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.



JAMI TA'SIRI +0,54 f.d.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH
SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.



JAMI TA’SIRI +1,36 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘zgarishining joriy yil fevral oyidagi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘shish sur‘atiga ta’siri **+0,31 f.d.** ni tashkil etdi. Transport sohasida narxlarining o‘zgarishi ham o‘shish tomonga (**+0,17 f.d.**) ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, kiyim va poyabzal narxlarining pasayishi tutib turuvchi omil bo‘ldi

(**-0,01 f.d.**).



























Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2023- yil yanvar-fevraldagi yig‘ma INI **0,75 f.d.** o’sdi, transport sohasidagi narxlar o‘zgarishi yig‘ma ko‘rsatkichga **0,23 f.d.** qo’shdi. Boshqa bo‘limlarning ta’siri past darajada bo‘ldi.

**2023- YIL FEVRAL OYIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA
O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR
NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI, F.D.**

o‘tgan yilning fevraliga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH
SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.

UMUMIY TA’SIR
DARAJASIDAGI ULUSHI, % da

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	 6,15	50,2 
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	 0,09	0,7 
Kiyim va poyabzal	 0,99	8,1 
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	 0,50	4,1 
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	 0,87	7,1 
Sog‘liqni saqlash	 1,06	8,7 
Transport	 1,08	8,8 
Axborot va aloqa	 0,05	0,4 
Dam olish, sport va madaniyat	 0,32	2,6 
Ta’lim	 0,08	0,7 
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	 0,41	3,4 
Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar	 0,02	0,2 
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	 0,61	5,0 

Jami ta’siri +12,23 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari tebranishi hisobiga 2023- yilning fevralida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy **12,23 f.d.** o‘sinh sur‘atiga **6,15 f.d.** ta’sir etdi. Shu tariqa, ushbu bo‘lim hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami

ta’sirining **50 %** idan ortig‘i to‘g‘ri keldi. Sog‘liqni saqlash va transport sohalarida narxlar o‘zgarishining jami ta’siri **2,14 f.d.**, yoki **17,5 %** ni tashkil etdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74